

KAM TA'MINLANGAN OILALAR BILAN OLIB BORILAYOTGAN DAVLAT SIYOSATI VA UNING NATIJALARI

Achilova Barno Toir qizi

Chilonzor tumani Inson ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kam ta'minlangan oilalar bilan ishlash va bugungi kunda mazkur oilalar bilan ish tashkil qilishning qonuniy asoslari haqida batafsil yoritilgan bo'lib, shu bilan birgalikda olib borilgan siyosatlarning natijalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kam ta'minlangan oilalar, psixolog, ijtimoiy yordam, ruhiy qo'llab-quvvatlash, kambag'allik reestri, farovonlik asoslari.

KIRISH.

Jamiyatning har qanday qatlamida ijtimoiy tenglikka erishish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar farzandlari va ularning hayot sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayonda psixologning o'rni beqiyosdir. Psixolog nafaqat ruhiy yordam ko'rsatadi, balki oila ichidagi ziddiyatlar, tushkunlik, tarbiyadagi muammolarni aniqlab, ularga tizimli yondashadi. Shu sababli, kam ta'minlangan oilalar bilan ishlashda psixologning professional yondashuvi va strategiyasi nafaqat oilaning ijtimoiy holatini, balki farzandlarning kelajakdagi rivojlanishini ham belgilaydi. Yurtimizda so'nggi paytlarda izchil islohotlar olib borilmoqda jumladan: "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi prezident farmoni qabul qilindi

2024 yilning qolgan davrida 500 ming, 2025 yilda 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilangan edi.

Kambag'allikni qisqartirish sohasida erishilgan ijobiy natijalar va to'plangan milliy tajriba hamda ilg'or xalqaro amaliyot asosida har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi amalga oshiriladi hamda dasturini amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etiladi.

Dastur 2024 yil 1 noyabrdan quyidagilarni nazarda tutuvchi “Kambag‘al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas‘uliyat” tamoyili asosida amalga oshirildi.

- **barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish;**
- **ta‘lim olish va kasb-hunar o‘rganish;**
- **kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanish;**
- **ijtimoiy xizmatlardan foydalanish;**
- **yashash sharoitlarini yaxshilash;**
- **davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish;**
- **davlat organlari xodimlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilish.**
- Endilikda ko‘p qirrali yondashuvlar asosida kambag‘al oilalarning a‘zolariga sifatli ta‘lim berish, ularni kasbga o‘qitish, ish bilan ta‘minlash, sog‘lig‘ini yaxshilash, psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha individual ko‘mak berish paketlari bo‘lishi belgilandi.
- 2025 yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilangan edi.
- Shu maqsadda kambag‘al oilalar bolalari maktablarda chet tili, kasb-hunar va IT bo‘yicha bepul bilim olishi uchun 500 milliard so‘m ajratildi. Ijtimoiy ahvoli og‘ir 1 mingta mahallada infratuzilmani yaxshilash dasturi amalga oshirildi. Bunga 2 trillion so‘m yo‘naltirildi.
- Kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga jami 46,5 trillion so‘m mablag‘ sarflandi.
- Hukumat 2030 yilgacha ishsizlikni xalqaro e‘tirof etilgan daraja – 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalarni ham samarali hal etmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan siyosatlar o‘zini oqlamoqda. Bunga yaqqol misol tariqasida yuqoridagi ma‘lumotlarni keltirsa bo‘ladi. Oila bu jamiyat ichidagi kichik jamiyatdir. Jamiyatning har bir bo‘g‘ini o‘zini ehtiyojlarini o‘zi qondira oladigan darajaga yetsa, bu jamiyat albatta bekami ko‘st va o‘ziga to‘q jamiyat hisoblanadi. Buning uchun har bir oilaning daromad manbai bo‘lmog‘i muhim masaladir. Jarayonni izchil davom etishiga ota-onalar mas‘uldirlar. Ota-onalarning farzand tarbiyasidagi roli juda muhim va u bolalarni maktabga yuborishdan tashqarida. Ota-onalar farzandlarining akademik muvaffaqiyati, shaxsiy rivojlanishi va umumiy farovonligini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ota-onalarning farzand tarbiyasidagi rolining ba‘zi muhim jihatlari: Ota-onalar bolaning hayotidagi birinchi tarbiyachilardir. Ular bolaning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga dastlabki bosqichlardanoq ta‘sir qiladi. Uyda tarbiyalanuvchi va rag‘batlantiruvchi muhitni ta‘minlash bolaning umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Ota-onalar qanchalik kichik bo'lmasin, qiziqishni kuchaytirish, izlanishni rag'batlantirish va yutuqlarni nishonlash orqali o'rganishga ijobiy munosabatni rivojlantirishlari mumkin. Bolaning ta'lim jarayoniga jalb etilishi ularga o'rganishni umrboqiy va zavqli jarayon sifatida ko'rishga yordam beradi. Ota-onalar o'z farzandlarining o'quv natijalari va xulq-atvori uchun haqiqiy umidlarni qo'yishlari mumkin, bu ularga ta'limning muhimligini tushunishga yordam beradi. Eriş mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash bolalarni rag'batlantirishi va mas'uliyat hissini uyg'otishi mumkin. Uyda o'rganish uchun qulay muhitni ta'minlash tinch o'quv maydonini tashkil etish, kitoblar va o'quv materiallari kabi zarur resurslarni ta'minlash va chalg'itishni cheklashni o'z ichiga oladi. Zero, shunday farzandlar barpo qilgan jamiyatda hech qachon kambag'allar va kambag'al oilalar mavjud bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). Ta'lim tizimida ko'zi ojiz o'quvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanida o'qitish texnologiyalar. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 990-993.
2. Jo'rayev A. va boshqalar. *Oila psixologiyasi*. Nukus: Qoraqalpog'iston, 2021. – 176 bet.
3. Tursunov H. *Yoshlar bilan ishlashda psixologik yondashuvlar*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2022. – 120 bet.
4. [www. Oila.uz](http://www.Oila.uz)
5. [www.ijtimoiy himoya.uz](http://www.ijtimoiy_himoya.uz)
6. Oila va gender tenglik tadqiqot institute web sayti